

**XIV-XV ASRLAR MARKAZIY OSIYODA UYG'ONISH DAVRIDA O'ZBEK
MUTAFAKKIRLARI VA DAVLAT ARBOBLARI ASARIDA HUQUQBUZARLIKLER
PROFILAKTIKASI G'OYA VA FIKRLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Qadamov Ro'zimat Xo'jaboy o'g'li
IIV Akademiyasi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: *Ushbu maqola mavzusining dolzarbliji o'zbek mutafakkirlari va davlat arboblari asarida huquqbuzarliklar profilaktikasi g'oya va fikrlari mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari, o'zbek mutafakkirlari va davlat arboblari asarida huquqbuzarliklar profilaktikasi g'oya va fikrlarining nazariy hamda konseptual asoslari, shuningdek, O'zbek mutafakkirlari va davlat arboblari asarida huquqbuzarliklar profilaktikasi g'oya va fikrlariga doir ta'limotlarning ahamiyati va bugungi kundagi o'rni haqida yoritib o'tilgan.*

VIII asr boshlarida Markaziy Osiyo arablar istilosiga uchradi, u arab xalifaligiga buysundirildi, bu yerga islom dini kirib keldi. IX asr boshlaridan boshlab Movarounnaxda arab yoziuvida yozilgan yodgorliklar vujudga kela boshladi. Arab istilosidan, ya'ni VIII asrdan XX asr boshlarigacha Movarounnaxda islom dini ta'sirida arab yoziwigiga asoslangan madaniy-ma'rifiy rivojlanish xukm surdi.

M.Xayrullayevning ta'kidlashicha VIII-XX asr boshlaridagi madaniyatni 4 davrga bulish mumkin:

1. Ilk uygonish davri. IX-XIII asr 20-yillarigacha ulgan davrni uz ichiga oladi. Bu davrda arab istilosiga karshi uzok davomli kurash natijasida Markaziy Osiyo yerlarida tub xalklarning mustakil feodal davlatlari vujudga keldi. Ilmiy-madaniy yuksalish Bagdoddan Movarounnaxr, Xuroson yerlariga kuchdi. 1220 yilda bu madaniy uygonishRenessans birdan uzilib koldi, mugillar xujumi bilan Movarounnaxr va Xurosonni vayronaga aylantirdi, olimlar katl etildi.

2. Ikkinci uygonish davri Markaziy Osiyoda XIV asr 2-yarmidan boshlab XV asrni uz chiga oladi. Temuriylar davri xam shunga kiradi.

Uygonishning uchinchi davri Temuriylar davlatining inkirozi bilan boshlandi. Temuriyzoda Mirzo Bobur XVI asr boshlarida xindistonda Temuriy davlatini barpo etdi. Markaziy Osiyolik olimlar xindiston yerida ijod kila boshladilar. Movarounnaxda esa uzok yillik feodal urushlar, ikchi nizolar kuchayib ketdi. XVI asr ikkinchi yarmida Buxoro va Xiva xonliklari, XVIII asr oxirida esa mustakil Qo'qon xonligi tashkil topdi. Bu notinchlik XVI-XIX asr birinchi yarmigacha iktisodiy, siyosiy va madaniy xayotga salbiy ta'sir kildi⁹³.

3. Turkiston madaniyatining to'rtinchi davri XIX asr 60-yillardan XX asrning 17-yillarigacha bo'lgan davrlarni uz ichiga oladi. Bu yerda Rossiya hukmronligi o'rnatila boshlandi.

⁹³ Хайруллаев М. М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. -Тошкент, 1971.

4. Uyg'onishning beshinchı davri 1999 yillarda O'rta Osiyoda, shuningdek yer yuzining ko'plab mintaqalarida boshlandi. Bunda o'zlikni anglash, tarixni bilishga intilish kuchaydi.

Arab xalifaligida yuz bergan ijtimoiy – siyosiy o'zgarishlar, yagona islom dininig tarkib topishi madaniy-ma'naviy xayotga xam ta'sir etdi. Unda katta ko'tarinkilik ruxini paydo etdi. Bu ko'tarinkilik butun Arab xalifaligini, YAqin va o'rta SHarqni qamrab olganligi uchun SHarq uyg'onish davri deb ataladi. Bu jarayon IX asrdan boshlab XV-XVI asrgacha davom etdi.

Arab xalifaligida VII asrda vujudga kelgan Uyg'onish davri xalifaligining Bag'dod, Damashq, Xalab shaxarlarida boshlanib, barcha xalqlar madaniy xayotiga tarqagan, bu esa shu davlatlarning xam madaniy rivojlanishiga zamin tayyorlagan. Xalifalik yemirilishi natijasida tashkil topgan mustaqil davlatlardagi madaniy rivojlanish xalifalik davridagi madaniy rivojlanishning davomi buldi. Ayniqsa VII asr oxiri IX asr boshlarida xalifalikning markazi Bag'dod, Damashq shaxarlarida madaniyat ilm-fan kuchayib bormokda edi. Xususan Xalifalar Mansur (754-776) Horun ar-Rashid (786-809) va uning o'g'li Ma'mun (813-833) xukmronligi davrida hindcha, yunoncha, forschadan ilmiy, siyosiy, badiiy asarlarning tarjimalari ko'paydi, madaniy aloqalar avj oldi, qadimgi YUnionistonning mashhur olimlari Arsitotel', Galen, Gippokrat, Arximed, yevklid kabilarning merosi keng o'rganildi.

Xalifa Xorun- ar Rashid va uning o'g'li Ma'mun davrida Bag'dodda «Baytul xikma» (donishmandlik uyi-xozir akademiya ma'nosida) tashkil etiladi. Uning qoshida jaxon kutubxonasi tashkil topib, rasadxona, keyinchalik yangi kutubxona qurildi. Bu akademiya barcha ilm sohiblari to'plangan markazga aylandi. Bag'doddagi mazkur ilm markazi o'z navbatida SHarq va G'arbda ilm fanning taraqqiy etishiga, ma'naviy hayotning yuksalishiga ta'sir etgan. Bu o'rnida al-Ma'munning ilm-fan ravnakiga kursatgan xomiyligi bekiyos bulgan. Xalifalikning turli o'lkkalaridan taniqli olimlar Bag'dodga olib kelindi. Ma'mun Bag'dodga xalifa bo'lib ketishidan avval Mavrda xalifalikning O'rta Osiyo va Xurosondagi noibi bo'lgan. Uning saroyida katta olimlar: Xorazmiy, Farg'oniy Turkiy, Marvaziy, Moturidiy kabilar ijod kilgan. O'rta Osiyoga arablar kelib xalifalikkha bo'y sunishdan qutilish va mustaqil davlat tuzish uchun kurashga aylanib ketdi. Natijada IX asrning oxiridan boshlab mo'g'ullar istilosiga – X asrning boshlariga kadar bo'lgan davr ichida O'rta Osiyo va Xurosonda bir necha feodal davlatlari vujudga kelib, parchalanib ketdi, bular qoraxoniylar, somoniylar, saljuqiylar, g'aznaviylar va nixoyat xorazmshohlar davlati edi.

Qadimgi davrda yaratilgan madaniy yodgorliklar, ular xoh YUnion xoh arab, xoh Mavorounnaxr va Xuroson xalqining eng qadimgi antik darvlar madaniyati bo'lsin, Uyg'onish davri madaniyatining yaratilishi va rivojlanishiga asos bulib xizmat qildi.

Agar arablar O'rta Osiyon bosib olib, bu yerda ilgari mavjud bulgan fan va madaniyat uchoklarini yukotgan bulsalar, kup utmay kadimiy ilmiy an'ana asta-sekin tiklanib natijada ilm-fanning yetuk siymolari yetishib chika boshlaydi. Bularning

barchasining bir-biriga kushiluvchi natijasida SHarkda bir butun madaniyat tarkib topadi va rivojlana boshlaydi.

«Pireney yarim orolining arablar tomonidan bosib olinishi insoniyat tarixida yangi sahifa ochdi. Makedoniyalik Aleksandr orzu kilgan SHarq va G’arbning hayotida yangi davr boshlandi. Bu jarayonning, ayniksa, yevropa uchun axamiyati beqiyos buldi. SHarq faqatgina yevropa madaniyatining rivojiga ta’sir etibgina qolmay, balki umuman yevropalik odamning psixologiyasi, tafakkuri, xarakteri, hayot tarzini, tarixiy jarayonni tubdan o’zgartirib yubordi»⁹⁴.

SHarq «uyg’onish davrida» ilm-fan 3 yunalishda rivojlangan:

1. Birinchi yo’nalish – matematika-tibbiyot yunalishi bulib, bularga matematika, astronomiya, kimyo, geodeziya, mineralogiya, tibbiyot, farmakologiya va boshka shularga turdosh fanlar kiritilib, Muhammad Muso Xorazmiy, Axmad Farg’oniylar matematikaga oid, Zakariyo ar-Roziy kimyo va tibbiyotga ibn Sino, Jurjoniy tibbiyot va falsafa, Abu Rayxon Beruniy tibbiyotga oid yirik asarlar yaratdilar.

2. Ikkinci yo’nalish – ijtimoiy-falsafiy yunalish bulib, bunda falsafa, tarix, mantiq, fiqx, ruhshunoslik, notiqlik va boshka fanlar buyicha Forobiy, al-Kindiy, ibn Sino, Zaxiriddin Bayxakiy, Muhammad Narshaxiy va boshklar faoliyat ko’rsatganlar.

3. Uchinchi yo’nalish – ta’limiy-axlokiy yunalishi bulib bu soxada komusiy olimlar o’z qarashlarini ijtimoiy-falsafiy va ilmiy asarlar tarkibida yoki axloqiy asarlarda bayon etsalar, adib va tarbiyashunos olimlar ta’lim-didaktik asarlarida ifodalaganlar. Ma’lumki, SHarq uyg’onish davrida inson muammosi ma’naviyat soxasidagi asosiy masala bulgan. SHuning uchun xam ta’lim-tarbiya masalalariga katta e’tibor berilgan, yaratilgan asarlarda SHarqqa xos bo’lgan insonning axloqiy-ruxiy kamolotini ulug’lash yetakchi o’rin tutgan.

Umuman uyg’onish davri madaniyatining uziga xos tomonlari mavjud bo’lib, ular quydagilardan iborat:

1. Dunyoviy ma’rifatga intilish, bu yo’lda o’tmish va qo’shni mamlakatlarning madaniyati yutuqlaridan keng foydalanish ayniqsa tabiiy-falsafiy, ijtimoiy ilmlarni rivojlantirish.

2. Tabiatga qiziqish, tabiatshunoslik ilmlarinng rivoji, ratsionalizm aql kuchiga ishonish, asosiy e’tiborni xaqiqatni topishga qaratilgan fanlarga berish xaqiqatni inson tasavvuri, ilmining asosi deb hisoblash.

3. Insonni ulug’lash, uning akliy, tabiiy, badiiy, ma’naviy fazilatlarini asoslash, insonparvarlik, yuqori axloqiy qonun va koidalarni namoyon etish komil insonni tarbiyalashni maksad qilib quyish.

4. Universallik - qomusiylik barcha narsa bilan qiziqish bu davr madaniyatining muhim tomonlaridan biri edi.

⁹⁴ Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири .Т.: Ўзбекистон» 1971, 43- бет

Bu davr madaniyati umuminsoniy fazilatlar rivoji uchun xizmat qildi. Uyg'onish davri mutafakkirlari o'zlarining qomusiyliklari, ayni bir paytning o'zida ham faylasuf, musiqashunos, ham mantiqshunos, jamiyatshunos va adabiyotchi, tarixchi, shoir va matematik, xullas ilimning xamma sohalaridan xabardorliklari, ijodning bir necha sohalarida o'zlarini ko'rsatganliklari bilan ajralib turadilar. SHarq ulug' siymolarining kishini lol koldiradigan jihatlaridan biri sifatida bir necha tilda bema'lol gaplasha olganliklарини xam aytib o'tishga to'g'ri keladi. Ilm-fan va madaniyatda ular shug'llangan sohalarni sanab aytib berish osonroqdir. Bundan tashqari ularning ko'philigi fanda yangicha yo'naliqlarni, yangicha tafakkur uslubini ixtiro kildilar, ilgari xech kim aytmagan yangi ta'limotlarni maydonga tashladilar va ilmiy asoslab berdilar. Buyuk tafakkur allomalari tomonidan chuqur ilmiy asoslangan g'oya va ta'limotlar faqat ular yashagan davr ko'zgusi emas, balki kelajakni oldindan bashorat qilish, tabiiy, ijtimoiy voqeа va jarayonlarni oldindan aytib berish nuqtai nazaridan xam bebahodir. Donishmand bobolarimizning ilmiy-falsafiy ta'limotlari umumbashariy axamiyatga ega bo'lgan ta'limotdir. SHu narsa e'tiborga sazovorki, SHarq mutafakkirlari o'z davri dolzarb hayotning markazida bo'ldilar, xalq va vatan manfaatini ximoya qildilar. Bu ularning xaqiqiy barkamol inson, otashin vatanparvar, xalqparvar va buyuk alloma ekanligining belgisi va bosh sababidir. Ushbu buyuk zotlar, qomusiy aql egalari yashagan Osiyoda ilm-fan va madaniyat, falsafa yanada rivojlanishi boshladi. Bu rivojlanish, to'xtovsiz takomillashib borish bir necha yillarni o'z ichiga qamrab oladi va bizning davrimizga yetib keldi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida islom dini kabul kilingandan sung ming yildan ortiqroq davr mobaynida o'qituvchi odobi g'oyalari islom ta'limoti ta'sirida shakllandi va rivojlandi. Ma'lumki, islom har bir musulmondan avvalo, iymonli bulishni talab etadi. Bu, Allohn, Muhammad uning rasuli ekanini tilda va dilda tan olish, barcha olamlarni, insonni xam Tangri yaratganiga, oxirat kuni muqarrarligiga ishonishni nazarda tutadi. SHubhasiz, bu, musulmon maktablarining muallimlariga qo'yiladigan axloqiy talablardan eng birinchisi va muhimidir. SHu bilan birga, Markaziy Osiyoda yashagan allomalar insonni komillikka yetaklash, shuningdek, jamiyatda o'rnatilgan tartib qoidalarga qat'iy rioya qilish, mamlakatda mavjud siyosiy-ijtimoiy tuzum hamda qonunlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash, bu borada ayniqsa, yosh avlodni o'qitish va ularga ta'lim-tarbiya berish, axloqiy me'yorlar va huquq normalariga doir ta'limotlarni xam yaratdilar.

Abu Nasr al-Forobiy (873—930) o'z asarlarida xar bir kishi jamiyatga, davlatga munosib inson bulishi uchun ta'lim va tarbiya olishi lozim deb hisoblaydi. YOshlarga ta'lim va tarbiya beradigan ustoz shogirdiga nisbatan juda qattik zug'um kilmasligi, shuningdek, haddan tashkari ko'p yon berishga xam intilmasligi lozim, chunki ortiqcha zug'um shogirdda ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordi-yu, shogird ustozning juda

xam yumshoqligini paykab qolsa, bu hol ustozni mensimaslikka va u beradigan bilimdan sovishga olib keladi⁹⁵.

Forobiyning ta'kidlashicha, xar bir kishining fe'l - atvoriga qarab tarbiya ikki usul - ixtiyoriy va majburiy usullar bilan amalga oshirilishi mumkin. Bordi-yu tarbiyalanuvchilar fan va xunar o'rganishga moyillik bildirsalar, ularga nisbatan ilhomlantirish, rag'batlantirish usuli ko'llaniladi: aksincha, mabodo ular o'zboshimcha va itoatsiz bo'lsalar, majburiy usulni qo'llash mumkin.

Musulmon maktabida ishlaydigan kishilardan ziyrak, aklli va axlokli odam bulish talab etilgan. Forobiy «Akl tugrisida»gi risolasida uzida un ikki xislatni birlashtirgan kishinigina axlokli odam deb xisoblaydi. Bu xislatlar katoriga: odamda barcha organlar mukammal tarakkiy etgan bulishi, barcha masalalarni tezda va tugri tushuna oladigan, xotirasi bakuvvat, zexni utkir, suzлari anik, fikrni ravon bayon eta oladigan, ukishga muxabbatli, me'yorga amal kila oladigan, xakikatni va xakikat tarafdarlarini sevadigan, yolgonchilarga nafrat bilan karaydigan, gurur va vijdonini kadrlaydigan, mol-dunyoga mukkasidan ketmagan,adolatni sevadigan, jabr-zulm utkazuvchilarga nafrat bilan karaydigan, adolatli bulish, kat'iylik kursatish kurkmas va jasur bulish kabilarni kiritadi. Ta'lim-tarbiya beruvchilar uz bilimlari va axlokiy darajalarida bir-birlaridan fark kiladilar, deb xisoblaydi

Kaykovus (XI asr) «Qobusnama» asarida bolalarga hunar va fazl o'rgatmak to'g'risida farzandiga qilgan nasihatida ota-onaning va muallimlarning bolaga muomala-munosabati masalasiga ham to'xtaladi. CHunonchi, u ota-onsa o'z bolasiga ilm va axloqiy fazilatlarni singdirish uchun bolani muallim qo'li bilan jazolashi mumkinligini uqtiradi va deydi: «... Va har ilmni o'rgatuvchi muallimlar ta'lim uchun (bolani) ursalar, sen (ota) shafqat ko'rguzgil, mayli ursunlar, nedinkim yosh ug'lon ilm va adabni tayoq bilan o'rganur va uz ixtiyori bilan o'rganmas. Ammo farzand beadab bulsa va sening ul sababdin qahring kelsa, o'z qo'ling bila urmagil, muallimlarning tayog'i bila qo'rqtug'il. Bolalarga muallimlar adab bersunlar, toki sendin o'g'lingning ko'nglida gina qolmasun»⁹⁶.

Makrkaziy Osiyo Uyg'onish davrida vujudga kelgan huquqbazarliklar profilaktikasiga oid ta'limotlarni gapirar ekanmiz, bu borada, Amir Temur davlati va temuriylar davri madanyati haqida alohida to'xtalib o'tish joiz. Insoniyat tarixidagi juda ko'p donishmandlar orzu qilgan kuch va adolat birligi 1370 yilda Termiz yaqinidagi Biy mavzeida sodir bo'lgan edi. Bu yerda o'zining favqulodda salohiyati va g'alabalari bilan butun Mavarounnahrga tanilgan 34 yoshli Amir Temur makkalik ulug' shayx, yer yuzi sayyidlarining peshvosi, 55 yoshli Sayyid Baraka bilan yuzma-yuz uchrashdi. Tarixchilar bu ulug' uchrashuvning "hech qanday va'da va oldindan kelishuvsız kutilmaganda" yuz bergenligini aytib, uni taqdiri azal tomonidan belgilangan uchrashuv, deya ta'riflaydi. Zero, bu yerda kuchqudrat ramzi Amir Temur hamda

⁹⁵ Хайруллаев М. М. Форобий ва унинг фалсафий рисолалари, -Тошкент, 1963.

⁹⁶ Алиқулов Ҳайдар. Фалсафий мерос ва маънавий-ахлоқий фикр ривожи. –Тошкент, 2009

adolat va ruhiyat timsoli Sayyid Baraka yuzlashdi. Olamshumul vazifani amalgamoshirish uchun kuch-qudratga mos keladigan, uni buyuk ishlarga yo'naltiradigan ruhiyat-ma'naviyat shu tariqa birlashdi. Sohibqiron pirlarining asosiy talabi esa – ADOLAT edi. Endi adolatning mazmun-mohiyati to'g'risida chuqurroq fikr yuritsak. "Adolat" so'zi arabcha "adl"dan olingan bo'lib, odillik, haqqoniylik, to'g'rilik ma'nolarini anglatadi.

Har ishda odil bo'lismaslik, zolim bo'lmaslik, nohaqlik qilmaslik go'zal axloqdandir. "Temur tuzuklari"da shunday yozilgan: "Hokimlaru sipohdan qay birining xalqqa jabr-zulm yetkazganini eshitsam, ularga nisbatan darhol adolatu insof yuzasidan chora ko'rdim"⁹⁷. Azaldan adolat bo'lgan joy gullab-yashnagan, xalq erkin bo'lgan. Adolat oyoqosti qilingan joyda esa, razolat hukm surib, jamiyat tubanlikka yuz tutgan. Odamzod qay mahal va mavqeda bo'lismidan qat'i nazar, adolatsiz yashashi mushkul. Negaki, inson faoliyatining qaysi bir qismini olib qaramang, u adolatga, to'g'rilikka asoslanmasa, muvozanat yo'qoladi, buzilishlar boshlanadi, izdan chiqadi.

Sohibqiron Amir Temur faoliyatining bosh tamoyili adolatga asoslanganligi – uning benazir aql-zakovati va yuksak tafakkuri, o'z xalqining axloq-odob haqidagi qarashlarini mukammal bilgan inson bo'lganligini ko'rsatadi. "Faqat insonni sevish orqaligina adolatparvar bo'lismumkin", – deb yozadi farang faylasufi. Bu hikmat xuddi buyuk Amir Temur haqida aytigandek. Sohibqiron o'z faoliyati davomida har bir mojaro va muammoli ishlarni diqqat bilan tekshirib ko'rgan. Barcha ishlarida haqqoniyat va adolat bilan ish tutgan. O'z fuqarolariga rahm-shafqatli bo'lgan. Kambag'allarga ko'p xayru ehson qilib turgan. Buning natijasida uning qudrati oshib borgan. Tarixiy manbalarda yozilishicha, Sohibqiron o'ziga to'rt nafar adolatlari vazir tayinlagan. Ulardan ikkitasiga doimo uni kuzatib turishlarini va agar adolatsizlik qiladigan bo'lsa, to'xtatishlarini, kimningdir yolg'on so'zlariga ishonsa yoki begona kimsa mulkiga xiyonat qiladigan bo'lsa, darhol ogohlantirishlarini ta'kidlab qo'ygan.

Adolatsizlikning katta-kichigi bo'lmaydi. Kichkinagina adolatsizlik ham vaqt kelib, butun jamiyatga aks-sado berishi tayin. "Y Axshilikni ochiq chehrali kishilardan kutinglar"⁹⁸, deyiladi muborak hadisda. Adolat haqida ham shunday deyish mumkin: nafrat, g'azabga to'lgan odamning adolat qilishi qiyin. Adolatparvar odamning axloqiy xislatlari esa, bemalol qonun o'rnini bosa oladi. Qonun – qonun bo'lganligi uchun emas, balki unda adolat aks etganligi uchungina qimmatlidir. Amir Temur qonunlarga rioya qilish masalasini shu qadar jiddiy qo'yganki, qonunni buzganligi uchun yuqori lavozimdagи mansabdorlar, hatto o'zining eng yaqin qarindoshlari va farzandlarini ham jazolashga buyurgan. Qonunchilikka qat'iy rioya etilishi natijasida mamlakatda tinchlik va osoyishtalik barqarorligi ta'minlangan. Safarlardan qaytib kelganda, shaxsan o'zi bozorlarni tekshirar, agar qassob, baqqol, novvoy va hokazolar foyda topaman deb, narx-navoni oshirib yuborgan bo'lsalar, adolat rusumi buzilganini ko'rsa, gunohkorning

⁹⁷ Темур тузуклари. Амир Темур. Маънавият 2019, 23-бет.

⁹⁸ Имом Бухорий. "Саҳихи Бухорий", Мовароуннахр 2015, 245-бет

jazosini bergen. Sohibqiron o'z tuzuklarida "Maslahatchilar va kengash ahli yig'ilganda, oldimizdagi ishlarning yaxshi-yomon, foydayu ziyon tomonlari, ularni amalga oshirish, oshirmsaslik haqida so'z ochib, ulardan fikr so'rар edim. So'zlarini eshitgach, ishning har ikki tomonini mushohada qilib, foyda-ziyonlarini ko'nglimdan kechirardim"⁹⁹, deb qayd etadi. Bu "Kuch – adolatda" shioriga amal qilingan sultanatda davlatni boshqarish va mamlakat taqdiriga daxldor qarorlar qabul qilishda xalq fikriga, xohish-irodasiga tayanilganidan dalolat beradi. "Kuch – adolatda" shiori butun sultanat hududida axloqiy va ma'rifiy mezonga aylandi. Sohibqiron sultanatidagi adolat va xavfsizlik shunchalar yuksak ediki, buni tarixchilar, "agar, mamlakatda yosh bola bir tovoq oltinni boshiga qo'yib, mag'ribdan mashriqqacha borsa, hech kim unga qo'l cho'zmas va oltindan bittasi ham kamaymas edi", deya ta'riflaganlar.

Markaziy Osiyo mintaqasida shakllangan amaliy davlatchilik an'analariga, xususan Sohibqiron Amir Temur zamonasiga borib taqaladi. U o'z «Tuzuk»larida qayd etganidek, davlatni dini islom, to'ra va tuzuk asosida mustahkamladi. Sohibqironning o'zi qonunlarga qat'iy rioya qilgan holda ahli musulmonlarni gunoh ishlardan qaytarib, yaxshi va savob ishlarga undagan. Musulmonlarga tavsif, hadis, fiqh dan dars bersinlar, deb shaharlarga fiqh olimlarini va mudarrislarni muntazam yuborib turgan. Milliy davlatchiligidan oqil podshohlarimiz davlatni adolatli, qonun-qoidalar chegarasida boshqarganlar. Bu xususda jahongir Amir Temur yozadi: «... Sultanatim martabasini qonun-qoidalar asosida shunday saqladimki, sultanatim ishlariga aralashib, ziyon yetkazishga hech bir kimsaning qurbi yetmasdi». Bizning davrimizda o'sha qonun-qoidalar tuzuklarga birlashib, mukammallahib, qonunlarda jamlangan. Qaysi mamlakatda qabul qilingan qonun-qoidalarga hamma baravar amal qilsagina, sultanat mustahkam bo'ladi, xalq farovonligi oshadi, u haqhuquqidan to'la foydalanishga erishadi. SHu qonun kuchiga ega bo'lgan vazifalar allaqachon amalda qo'llanila boshlandi. Bu qonun oldida barcha teng javob beradi. Agar qonun amalda tatbiq etilmasa, u xalq oldida hech qanday obro'-e'tiborga ega bo'lmaydi. Qonun hamma uchun teng bo'lsa, u ma'naviy, tarbiyaviy kuch-qudratga ega bo'ladi.

Amir Temur va temuriylar davri davlatchiligi, ma'naviyati o'zining salohiyati, mazmuni, tarbiyaviy kuchi va ta'siri bilan xalqimiz tarixida alohida o'rin tutadi. O'zbekiston o'zining davlat mustaqilligiga erishgach, uning bir necha ming yillik ijtimoiy-siyosiy tarixini har taraflama o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ayniqsa, markazlashgan Amir Temur sultanati, uning o'zbek davlatchiligi va madaniyatini rivojlantirishdagi o'rni masalalariga oydinlik kiritilib, tarixchi, sharqshunos olimlarimiz ko'plab birinchi manba ahamiyatidagi asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilib, nashr ettirdilar. Davlatimizning siyosati va xalqimiz xohish-irodasiga asoslangan Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 29 dekabrda «**Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida**»gi qarori, 1995 yil 26 dekabrda esa Prezidentimizning «1996 yilni Amir Temur yili deb e'lon qilish to'g'risida»gi farmonlari qabul qilindi. 1996

⁹⁹ Темур тузуклари. Амир Темур. Маънавият 2019, 35-бет

yil martida «Temuriylar tarixi» davlat muzeyini tashkil qilish xususida, «Amir Temur» ordenini ta’sis etish to’g’risida farmonlar chiqdi. YUNESKO qarori asosida Amir Temur tavalludining 660 yilligi butun dunyoda keng nishonlandi. 1996 yil aprelida shu tashkilotning Parijdagi bosh qarorgohida «Temuriylar davrida fan, madaniyat va ta’lim ravnaqi» mavzuida ilmiy konferensiya o’tkazilib, Buyuk davlat arbobining tarixdagi o’rniga yuksak baho berildi. «Amir Temur jahon tarixida qudratli va gullab-yashnagan davlat barpo etgan buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatidagina mavqeい tutmaydi. U o’z poytaxti bo’lmish Samarqandni er yuzining chinakam madaniy va ilmiy markazlaridan biriga aylantirdi. Bu ulug’ zot qurdirgan me’morchilik va xalq san’atining javohirlari yanglig’ bugungacha qad ko’tarib turgan osori atiqalar shahar va qishloqlarimiz ko’rkiga ko’rk qo’shib kelyapti. Sohibqiron zamonasining ajoyib diplomi, davlatlar o’rtasida do’stona munosabatlar o’rnatalishi va iqtisodiy aloqalar rivojlanishining tarafdori sifatida ham mashhur edi. U olimlar va hokimlar, me’morlar va shoirlarning buyuk homiysi yanglig’ dong chiqqargan». Bugungi kunda demokratik huquqiy davlat qurayotgan xalqimiz Vatanimiz tarixida huquqiy davlat haqidagi tasavvur va qarashlarning yuzaga kelishi hamda rivojlanishi, uning yuridik manbalari, dunyoviy huquq va qonunchilik masalalarini ham bilishni istaydi, albatta. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, Temur tuzuklarini tarixiy-huquqiy tadqiq etish alohida dolzarblik kasb etadi. Zero, o’tmish merosimiz, uning boy davlatchilik va huquqiy asoslari, xususan, Amir Temur davrida davlat va huquq borasida qo’llanilgan adolatli tamoyillar bugungi kunda mustaqilligimizga ham xizmat qilib, shaxsning yuksak siyosiy, axloqiy va huquqiy madaniyatini shakllantirishda ko’maklashmoqda.

Amir Temur hayoti va faoliyatini yorituvchi asosiy tarixiy manbalar benihoya ko’p va xilma-xil bo’lib, bu uning nomi, jahon tarixidagi roli beqiyos ekanligi va g’oyat mashhurligidan dalolat beradi. Amir Temur, Temuriylar davlati, uning tashkil topishi masalalariga bag’ishlangan, chet ellarda va Respublikamizda olib borilgan tadqiqotlarning ilmiy tahlili ham bir qator olimlarimizning kitoblarida yoritilgan. «Temur tuzuklari» ilmiy jamoatchilikni 600 yil mobaynida qiziqtirib kelmoqda. «XIII asrning 20-yillarda Markaziy Osiyoga mo’g’ul hukmdorlari egalik qila boshlashlari oqibatida Abu Nasr Forobiy, Muso Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad YUgnakiy, Mahmud Koshg’ariy kabilar zakovati bilan tiklangan ilm-fan va madaniyatimiz qoyalari nurashga yuz tutdi, hukmron mafkura hisoblangan islom dini ham o’z maqomidan anchagina mahrum bo’ldi. CHunki Movarounnahri o’z ulusi o’laroq tasarrufiga olgan CHig’atoyxon islom dinining ashaddiy dushmani edi» YOv asoratida qolgan Movarounnahr xalqi, ozodlik kurashiga shaylanar ekan, ko’ksida asrab-avaylab kelgan istiqlol g’oyasini qudratli kuch va harakatga aylantiradigan ma’naviy asosni axtardi. Turonliklarning erkka bo’lgan intilish va irodasini tarbiyalagan er, avvalo, mashhur ajdodlar vatanparvarligi, so’ngra dini islom va shu yurtda dunyoga kelgan to’rt buyuk tariqat bo’ldi. Mo’g’ullar bosqini arafasida shakllanish bosqichida bo’lgan Futuvvat (javonmardlik, jo’mardlik), YAssaviya,

Xojagon (keyinroq Naqshbandiya) va Kubraviya tariqatlari namoyandalari ta'sirida xalq e'tiqodini poklab, ma'nан o'zidan tuban turuvchi dushman ustidan ruhiy g'alabaga erishdi.

Temurning ijtimoiy-siyosiy tamoyillari tizimini yanada batafsilroq bayon qilsak, quyidagi manzara hosil bo'ladi:

1. Amir Temur iqtisodiyotni har qanday sultanat poydevori, deb tushungan. «Davlatu sultanat – deb ta'kidlaydi, Temur o'zining «Tuzuklari»da, – uch narsa bilan – mulk, xazina va lashkar bilan tirikdir». Bu bilan Temur davlatning yashashi va ijtimoiy rivoji uchun, avvalo, iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi.

2. Amir Temuring qarashlariga ko'ra, har bir mamlakat, turli xil iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, barcha mintaqalar «xususida to'la ma'lumotlarga ega bo'lishi va ularning iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olishi» lozim.

3. Amir Temur asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan er egaligiga katta e'tibor qildi va har bir viloyatni idora qilishda davlat, vaqf, xususiy er egaligi tartiblarini saqlab qoldi va bunga er maydonining miqdori, egalik huquqini davlat manfaatini ko'zda tutib, o'zgartirishga harakat qildi.

4. Temur mehnatning yaratuvchanlik faoliyatini nazarda tutib, uni ijtimoiy qadriyat, deb tushundi.

5. Amir Temur iqtisodiy tamoyillari tizimida moliya masalalariga katta e'tibor bergan. Chunki moliya Temur nazarida davlatning iqtisodiy tayanchi hisoblangan.

INTERNET SAYTLARI:

1. <http://akadmvd.uz> (O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi).
2. <http://www.lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).
3. <http://natlib.uz> (Alisher Navoiy Nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi).
4. <http://www.stat.uz> (O'z.Res. Davstatqo'm rasmiy veb-sayti.).
5. <http://ziyonet.uz> (ZiyoNET ta'lim portali).